

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomurov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmurodovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agrotexnologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВА

Оптималь суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 дон чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibril modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





YULDASHOV NURBEK ERGASHOVICH, ZAHRIDDINOVA GAVHAR HASAN

QIZI

Chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash usullari va ilmiy-amaliy ahamiyati.....516

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH, SHOKIROV ALISHER

JO'RABOYEVICH

Piyozni oraliq ekin sifatida ko'chatidan ekib yetishtirishda piyoz nav namunalarining rivojlanish bosqichlarini davomiyligi.....521

ТРЯНОВСКАЯ РАНО АБДУСАТТАРОВНА, ИСАМУХАМЕДОВ САЛИХ

ШУКУРОВИЧ

Сезонная динамика клинических показателей Африканских страусов разных возрастных групп в условиях Узбекистана.....526

TURDALIEV JAMOLBEK MO'MINALIEVICH, SANAQULOV SUXROB

FARMONQULOVICH

Teskari Osmos texnologiyasi yordamida minerallashgan kollektor-drenaj suvlarini tozalash va uning tuproq ekologik-meliorativ holatiga ta'siri.....531

BO'RIYEV ABROR NORTAJIYEVICH, NIZOMOV RUSTAM AXROLOVICH

No'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda ekish sxemalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....539

KAMALOVA NARGIZA MAXAMMADOVNA

Pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalarining hosildorligi.....545

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Yer tuzishni majmuaviy baholashning integrallashgan ko'rsatkichini shakllantirish va hisoblash algoritmi.....552

BOLTAYEV SAYDULLO MAQSUDOVICH, MELIYEVA FAROG'AT SHAVKAT

QIZI

Kuzgi bug'doyning (*Triticum Aestivum* L.) biometrik ko'rsatkichlari va hosil elementlarining shakllanishiga mineral o'g'itlarga qo'shimcha tabiiy adsorbentlarni qo'llashning ta'siri.....567

UZOQOV ADIXAMJON ABRORJON O'G'LI

Qator orasi va ko'chat qalinligining sholi hosili va don sifatiga ta'siri.....571

BOBOBEKOVA SHAROFAT DO'STNAZAR QIZI

Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish dinamikasi va meliorativ holatini baholash.....576

MUNIRA SHAVKATOVNA XUDAYQULOVA

Sabzavot loviyasi (*Phaseolus Vulgaris* L.)ning navlari o'sishi, dukkak shakllanishi va hosildorligiga ta'siri.....582

ESHONQULOV JAMOLIDDIN SAPORBOY O'G'LI, XUDAYBERGENOV

NE'MATULLA MATKARIMOVICH, TO'XTAYEVA GULSHAN PO'LOTOVNA

Buxoro-10 (Sardor-1) va Porloq-1 g'o'za navlari ekilgan tajriba dalasi tuprog'ining suv o'tkazuvchanligi.....587

SAYFIDINOV XAYITMUROD ZIYEDULLAYEVICH

Ekish chuqurligi va minutuganak vaznining kartoshka Sante navi Palak hamda ildiz massasiga ta'siri.....591





KUZGI BUG'DOYNING (TRITICUM AESTIVUM L.) BIOMETRIK KO'RSATKICHLARI VA HOSIL ELEMENTLARINING SHAKLLANISHIGA MINERAL O'G'ITLARGA QO'SHIMCHA TABIIY ADSORBENTLARNI QO'LLASHNING TA'SIRI

BOLTAYEV SAYDULLO MAQSUDOVICH

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar
universiteti professori, q.x.f.d.

MELIYEVA FAROG'AT SHAVKAT QIZI

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar
universiteti tayanch doktoranti

E-mail: farogatmeliev@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-5865-3921>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kuzgi bug'doyni yetishtirishda mineral o'g'itlar me'yorlarini kamaytirilgan fonida tabiiy adsorbent – bentonit loyqasining o'simlikning o'sishi, rivojlanishi va biometrik ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilgan. Bentonitning gidrofizik va agrokimyoviy xususiyatlari hisobiga mineral o'g'itlar tejamkorligiga va yuqori agroekologik samaradorlikka erishish mexanizmlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: kuzgi bug'doy, mineral o'g'itlar, bentonit, adsorbent, biometrik ko'rsatkichlar, mahsuldor poya, oziqa elementlari, agrokimyoviy xossalalar, tuproq unumdorligi.

Аннотация. В данной статье исследовано влияние природного адсорбента – бентонитовой суспензии – на рост, развитие и биометрические показатели озимой пшеницы на фоне сниженных норм внесения минеральных удобрений. Научно обоснованы механизмы достижения экономии минеральных удобрений и высокой агроэкологической эффективности за счет гидрофизических и агрохимических свойств бентонита.

Ключевые слова: озимая пшеница, минеральные удобрения, бентонит, адсорбент, биометрические показатели, продуктивный стебель, элементы питания, агрохимические свойства, плодородие почвы.

Abstract. This article investigates the effect of the natural adsorbent – bentonite slurry – on the growth, development, and biometric parameters of winter wheat under reduced mineral fertilizer application rates. The mechanisms behind achieving mineral fertilizer cost-efficiency and high agro-ecological effectiveness due to the hydro-physical and agrochemical properties of bentonite are scientifically substantiated.

Keywords: winter wheat, mineral fertilizers, bentonite, adsorbent, biometric parameters, productive stem, nutrients, agrochemical properties, soil fertility.

KIRISH

Jahon qishloq xo'jaligi amaliyotida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda g'alla ekinlari, xususan, kuzgi bug'doy (*Triticum aestivum* L.) yetakchi o'rinni egallaydi. Hosildorlikni oshirishning an'anaviy usuli intensiv ravishda mineral o'g'itlarni qo'llash bo'lib kelmoqda. Biroq, azot va fosforli o'g'itlarning yuqori dozalari nafaqat iqtisodiy jihatdan serxarajat, balki tuproqning sho'rlanishi, sizot suvlarining ifloslanishi kabi global ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. O'zlashtirilmagan oziq moddalarning tuproq profili bo'ylab yuvilib ketishi yoki atmosferaga parlanishi qishloq xo'jaligi





rentabelligini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, tuproqning singdirish sig'imini oshiruvchi, oziqa elementlarini o'zida ushlab, o'simlikka sekin-asta yetkazib beruvchi tabiiy adsorbentlardan foydalanish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida bentonit gillari montmorillonit mineraliga boyligi, yuqori kation almashinish sig'imi va suvni ushlab qolish xususiyati tufayli istiqbolli meliorant hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — kuzgi bug'doyning o'sish dinamikasi va biometrik ko'rsatkichlariga an'anaviy andoza mineral o'g'itlar hamda kamaytirilgan NPK fonida bentonit loyqasining ta'sirini qiyosiy baholashdan iborat.

TADQIQOT OBYEKTI VA METODIKASI

Dala tajribalari va tadqiqot ishlari qabul qilingan umumiy agrotexnik qoidalar hamda O'zbekiston paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti (O'zPITI) ning "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" asosida olib borildi. Kuzgi bug'doyning "Bunyodkor" navida fenologik kuzatuvlari bahorgi vegetatsiya davrida (1-mart, 1-aprel va 1-may) amalga oshirildi. Har bir variantda kuzgi bug'doyning biometrik ko'rsatkichlari (o'simlik bo'yi, barglar soni, mahsuldor poyalar soni) hamda maydon birligidagi (1 m^2) ko'chatlar soni kabi asosiy hosil elementlari belgilangan metodikalar asosida hisobga olindi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Kuzgi bug'doyning o'sishi va hosil strukturasining shakllanishi to'g'ridan-to'g'ri oziqa rejimiga hamda tuproqning gidrofizik holatiga bog'liqdir. O'tkazilgan fenologik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, variantlar o'rtasida o'simlikning biometrik ko'rsatkichlari bo'yicha jiddiy tafovutlar mavjud.

Bahorgi jadal o'sish fazasi. mart oyining boshidagi kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kamaytirilgan ma'dan o'g'itlar $N_{150} P_{105} K_{75}$ (1-variant) qo'llanilgan maydonda o'simlik bo'yi 65 sm, barglar soni esa o'rtacha 5,1 donani tashkil etdi. To'liq o'g'it me'yori $N_{200} P_{140} K_{100}$ berilgan 2-variantda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 68 sm va 6,3 donaga yetdi. Biroq, eng yuqori natija 3-variantda, ya'ni kamaytirilgan mineral o'g'it bilan birga 9 t/ga bentonit berilgan maydonda kuzatildi: o'simlik bo'yi 71 sm, barglar soni esa 7,2 dona bo'lishi ta'minlandi.

Ushbu qonuniyat aprel oyida ham saqlanib qoldi. 3-variantda o'simlik bo'yi 83 sm ga yetib, to'liq mineral o'g'it $N_{200} P_{140} K_{100}$ qo'llanilgan andoza variantdan ham (82 sm) 1 sm ga yuqori ustunlik ko'rsatdi.

1-jadval

Mineral o'g'itlar va bentonit me'yorlarining kuzgi bug'doyning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'siri

Vari- ant- lar	Ma'dan o'g'itlar me'yori, NRK	01.03		01.04		01.05		1m2 da ko'chat- lar soni
		Bug'doy ning bo'yi sm	Barglar soni dona	Bug'doy ning bo'yi sm	Barglar soni dona	Bug'doy- ning bo'yi sm	Mahsuldor poyalar soni	
1	150-105-75	65	5,1	78	5,5	94	4,0	404,5
4	200-140-100	68	6,3	82	6,5	98	5,1	424,1
3	150-105-75+ 9 t/ga bentonit	71	7,2	83	7,5	102	5,5	415,0





Hosil elementlarining shakllanishi. Kuzgi bug'doy hosildorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri — mahsuldor poyalar soni hisoblanadi. May oyi boshiga kelib o'simlik bo'yi bentonitli variantda 102 sm ni tashkil qilgan bo'lsa, mahsuldor poyalar soni 1 ta o'simlikda 5,5 donaga yetdi.. Shuningdek, poyaning saqlanib qolishi va yashovchanligini ifodalovchi 1 m² maydondagi tup qalinligi bo'yicha ham 3-variant ya'ni ma'dan o'g'itlarning kamaytirilgan me'yoriga 9 t/ga qo'shimcha bentonit qo'llanilganda ko'chatlar soni mutlaq ustunlik qildi (415,0 dona/m²). Yuqori mineral o'g'itlar foni (2-variant) o'simlik qalinligini 424,1 donagacha yetgan bo'lsa-da, bentonit qo'shilgan variantdagi agroekologik sharoit ko'chatlarning butun saqlanib qolishini muhim ahamiyat kasb etgan. An'anaviy usulda (2-variant) NPK 200-140-100 me'yorida solinganda, azot oson eruvchan bo'lganligi uchun bahorgi yog'ingarchiliklar va sug'orish suvlari ta'sirida chuqurroq qatlamlarga yuvilib ketadi, shuningdek, denitrifikatsiya jarayonida havoga parlanadi. 3-variantda esa 9 t/ga bentonit o'zining kristall panjaralari va katta sirt yuzasi yordamida azotning ammoniy (NH₄⁺) va nitrat (NO₃⁻) ionlarini adsorbent qilib ushlab qoladi. Natijada o'g'itning tuproqdan yuvilib ketishi keskin kamayadi.

Sekin ta'sir qiluvchi effekt: Bentonit o'zida ushlab qolgan oziqa elementlarini o'simlikning ehtiyojiga qarab, ildiz tizimiga sekin-asta, butun vegetatsiya davomida yetkazib beradi. Aynan shu sababli, 1-may holatiga kelib ham (don tugish va rivojlanish davrida) o'simlik azotli ochlikni sezmagan va eng yuqori mahsuldor poyalar sonini (5,5 dona) hosil qilgan.

Gidrofizik xususiyatlarning yaxshilanishi: Bentonit o'z massasidan bir necha barobar ko'p suvni singdirish xususiyatiga ega. Bahor oylarida namlikni o'zida saqlab, yuzaki bug'lanishni kamaytiradi. Bu esa 1 m² maydondagi o'simliklar nobud bo'lishini kamaytirib, ko'chat qalinligi 415,0 donaga yetishini ta'minlagan. Suv va oziqaning maqbul balansi o'simlikning bo'yi 102 sm gacha cho'zilishiga olib kelgan.

Ushbu mexanizmlar shuni isbotlaydiki, mineral o'g'itlarning miqdorini oshiraverish mutlaq hosildorlikni kafolatlamaydi. Eng muhimi — tuproqqa berilayotgan o'g'itning o'zlashtirish koeffitsiyentini oshirishdir. 9 t/ga bentonit aynan mineral o'g'itlar sarfini optimallashtirish vazifasini mukammal bajargan.

XULOSA

Kuzgi bug'doy yetishtirishda mineral o'g'itlar miqdori kamaytirilgan N₁₅₀P₁₀₅K₇₅ me'yorini 9 t/ga bentonit loyqasi bilan birgalikda qo'llash agroekologik va iqtisodiy jihatdan eng maqbul yechim hisoblanadi. Bentonit qo'llanilgan tajriba variantida andoza (2-variant)ga nisbatan bahorgi o'sish dinamikasi bo'yicha o'simlik bo'yi 4 sm ga uzunroq (102 sm), barglar soni ko'proq va bitta o'simlikdagi mahsuldor poyalar soni o'rtacha 0,4 donaga yuqori bo'lishiga erishildi. Tabiiy mineral bentonitning oziqa elementlarini yuvilib ketishdan saqlashi evaziga o'simliklarning tup qalinligi (1 m² da 415,0 tup) yuqori darajada saqlab qolindi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzayev A., va boshqalar. "Tuproq unumdorligi va tabiiy meliorantlar". Toshkent: Fan, 2023.
2. Xalilov N., "Kuzgi bug'doy yetishtirish intensiv texnologiyalari". Samarqand, 2021.
3. Dospekhov B.A. Методика полевого опыта. – Москва, 1985.
4. Yormatova D.X. Tuproqshunoslik va dehqonchilik asoslari. – Toshkent, 2021.
5. Brady N.C., Weil R.R. The Nature and Properties of Soils. – New York, 2019.
6. Ramesh K., Reddy D.D. Natural zeolites and bentonites in sustainable agriculture. – Advances in Agronomy, 2021.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**